**Seriya IBUZ**

ipotekabank
otp group

## Bank omonat shartnomasi № 0210001

"Ipoteka-bank" - aksiyadorlik tijorat ipoteka banki (keyingi o'rinlarda "Bank") bir tomondan va ushbu shartnomani imzolovchi fuqaro (keyingi o'rinlarda "Omonatchi") ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

### I. Shartnoma predmeti

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha Bank Omonatchidan qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan omonatni ushbu shartnomada va Omonatchi tanlagan omonat turi bo'yicha Bank Qoidalarida va omonat pasportida nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Ushbu shartnoma asosida Omonatchi Bankka quyidagi turdagi omonatlarni joylashtirishi mumkin:
a) talab qilib olinguncha; b) jamg'arma; d) muddatli omonatlar.

### II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Omonatchi hamda Bankning huquq va majburiyatlari Bank Qoidalarida ko'rsatib o'tiladi. Mazkur qoidalar Bankning rasmiy www.ipotekabank.uz veb-saytida joylashtiriladi.

### III. Tomonlarning javobgarligi

3.1. Ushbu shartnoma majburiyatlari bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

### IV. Nizolarni hal etish tartibi

4.1. Ushbu shartnoma yuzasidan vujudga keladigan kelishmovchiliklar tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq hal etiladi, o'zaro hal etilmagan kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

### V. Boshqa shartlar

5.1. Ushbu shartnoma omonat summasi Bankka kelib tushgan (kirim qilingan) kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi hamda omonat summasi va unga hisoblangan foizlar to'liq qaytarilgunga qadar amal qiladi.

5.2. Omonatga Omonatchi tanlagan omonat turi bo'yicha omonat pasportida belgilangan miqdorda foiz to'lanadi.

5.3. Ushbu shartnomani imzolash bilan Omonatchi Bank qoidalari va mahsulot pasporti bilan tanishganligini, omonat turini ixtiyoriy tanlaganligini tasdiqlaydi, shuningdek shartnomada belgilangan amal qilish muddati davomida ushbu shartnoma, Bank Qoidalari hamda mahsulot pasporti talablariga rioya qilish majburiyatini oladi.

5.4. Omonat hisobvarag'ida turgan pul mablag'lari bilan amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun bank tariflariga muvofiq haq undiriladi.

5.5. Fuqarolarning bankdagi omonatlari O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq kafolatlangan.

5.6. Omonatchi yoki uning hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlar sanksiyalar ta'siri doirasiga tushganida yoki tushish xavfi mavjud bo'lganida, Bank Omonatchi bajarmoqchi bo'lgan bank hisobvarag'i bo'yicha amaliyotni o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rashi, tegishli amaliyotni bajarishni rad qilishi yoki miqdorini chegaralashi mumkin.

5.7. Mazkur shartnoma o'zbek tilida, tomonlardan har biri uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

# OMONAT AMALIYOTLARI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Kassa raqami ____________________

Omonatchi F.I.Sh. ____________________

H/r № ____________________

Filial nomi ____________________

Tug'ilgan sanasi ____________________

Valyuta turi ____________________

Yillik foizi ____________________

Muddati ____________________

Omonat nomi ____________________

| № | Sana | Amaliyot turi | Kirim | Chiqim | Qoldiq | Foizlari | Imzolar | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | Kassir operator | Omonatchi |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |

**Belgilar uchun** ____________________

**Tomonlarning manzili va rekvizitlari**

| **"Bank"** | **"Omonatchi"** |
|---|---|
| ____________________ | ____________________ |
| Manzili: ____________________ | ____________________ |
| ____________________ | Manzili: ____________________ |
| MFO: ____________________ | *Pasport ma'lumotlari:* ____________________ |
| Tel: ____________________ | ____________________ |
| Boshqaruvchi yoki BXM rahbari: ____________ | Tel: ____________ ____________ *yopish sanasi* |
| Kassir-operator: ____________ | *"Shartnoma shartlari va omonat qoidasi bilan tanishdim"* |
| | ____________ *(F.I.Sh.)* ____________ *(imzo)* |